

Sheriklikni mustahkamlashga qaratilgan hujjatlar imzolandi




Oliy darajadagi muzokaralar yakunida hujjatlarni imzolash va almashish marosimi bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov Strategik sheriklikni chuqurlashtirish to'g'risidagi deklaratsiyani imzoladilar.

Bundan tashqari, ikki mamlakat hukumatlari, vazirlik va idoralari darajasida ko'p qirrali O'zbekiston-Turkmaniston hamkorligini kengaytirishga qaratilgan qator hujjatlar, shu jumladan:

- O'zbekiston Respublikasi va Turkmaniston o'rtasida siyosiy muloqot, parlamentlararo, savdo-iqtisodiy hamkorlik, madaniy-gumanitar almashinuvni faollashtirish bo'yicha 2022-2024 yillarga mo'ljallangan Amaliy harakatlar rejasi;
- Ikki tomonlama tashqi iqtisodiy munosabatlarni yanada rivojlantirish to'g'risida bitim;
- O'zbekiston Respublikasi va Turkmaniston hududlarida savdo uylari faoliyatini tartibga solish to'g'risida bitim;
- Ilmiy-texnik hamkorlik to'g'risida bitim;
- Qishloq xo'jaligi sohasidagi hamkorlikni yanada kengaytirish bo'yicha Amaliy chora-tadbirlar rejasi;
- Dori vositalari va tibbiyot buyumlarini ro'yxatga olish to'g'risida bitim imzolandi.

Shuningdek, elektr eneregetikasi, bojxona ishi, veterinariya va chorvachilik, kinematografiya va boshqa yo'nalishlar yuzasidan kelishuvlarga erishildi.



Manba